

4. Участники мобильности указывают на ее высокую эффективность;
5. Есть четкое понимание основ устойчивости проекта после завершения его финансирования;
6. Заключены ряд договоров между вузами партнерами в рамках проектов по мобильности и уже успешно осуществлены несколько проектов по мобильности;
7. Академическая общественность и студенты высоко оценивают разработанные модули, но есть четкое понимание необходимости дальнейшего совершенствования модулей, вплоть до создания отдельной магистратуры по общественному здоровью с учетом смежных дисциплин.
8. В некоторых вузах из Узбекистана были запущены новые учебные модули с использование результатов проекта UZHEALTH.
9. Для Узбекистана было важно еще больше распространить метод создания и модернизации учебных программ – Тюнинг;
10. Созданные ключевые ориентиры при создании учебных программ в области медицины, сельского хозяйства, экологии и ветеринарии нашли свое место в процессе модернизации всех учебных программ в Узбекистане.

**TA'LIM NATIJALARINING TA'LIM SIFATINI BELGILASHDAGI ROLI: Erasmus+
RUECVET LOYIHASI MISOLIDA**
Ahmadaliyeva S. M.

Maqola kasbiy ta'lim tizimida ta'lim natijalarini qo'llash va ularni rivojlantirish uchun amaliy qadamlarga bag'ishlangan. Malakaviy ramkalar taraqqiyotidagi muammolar, yechimlar, yondashuvlar tahlil qilingan. Bilimni qabul qilishda va tafakkurning shakllanishida ularning roli belgilangan.
Kalit so'zlar: *kasbiy talim, ta'lim tizimi, ta'lim natijalari, malakaviy ramkalar, pedagogik texnologiya, olyi ta'lim*

РОЛЬ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧЕНИЯ В ОПРЕДЕЛЕНИЕ КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ: НА ПРИМЕРЕ ПРОЕКТА Erasmus+ RUECVET
Ахмадалиева С.М.

Статья посвящена практическим шагам для внедрения и дальнейшего развития результатов обучения в систему профессионального образования. Рассмотрены проблемы, решения, подходы в развитии квалификационных рамок. Указана их роль в формировании мышления и восприятия знаний.
Ключевые слова: *профессиональное обучение, система обучения, результаты обучения, квалификационные рамки, педагогические технологии, высшее образование*

**THE ROLE OF LEARNING OUTCOMES IN THE DETERMINATION OF EDUCATION
QUALITY: ON THE EXAMPLE OF THE Erasmus+ RUECVET PROJECT**
Akhmadaliyeva S. M.

The article is devoted to practical steps for introduction and further development of learning outcomes in the vocational education system. Problems, solutions, approaches to the development of qualification frameworks are considered. It is indicated their role in the formation of thinking and perception of knowledge.

Keywords: *vocational training, educational system, learning outcomes, qualification frameworks, pedagogical technologies, higher education*

O'zbekistonda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishni yuksaltirishda muhim ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatdagi vazifa sifatida kasbga yo'naltirish ishlarini mazmun va sifat jihatdan takomillashtirish hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifaning uzluksiz ta'lim

tizimidagi o`rni to`g`risida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o`zining ilk “O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqiyot yo`li” risolasida “nafaqat umumiy ma`lumot va tarbiyani, balki kadrlarni kasbga yo`naltirish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni o`z ichiga oluvchi yagona uzlusiz milliy ta`lim tizimini yaratish vazifasiga qaratgan. Bundan tashqari prezidentimizning asarlari Milliy istiqlol g`oyasining ustuvor tamoyillari, “Ta`lim to`g`risidagi” qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, shaxs rivojlanishini tatqiq qilishda tizimlilik, integrallik, shaxs va faoliyat birligi nazariyasi, determinizm ta`moyillari nuqtai nazaridan yondashish, mamlakatimiz va chet elda kasbga yo`naltirish masalalarini yorituvchi pedagogik, psixologik tadqiqotlar, sharq alomalarining falsafiy pedagogik g`oyalari ham o`quvchilarni kasb – hunarga yo`naltirishni ilmiy tatqiq qilishning nazariy metodologik asoslari hisoblanadi. Bir e`tibor bering-a, prezidentimizning: “Yoshlarga biror – bir mutaxassislikni egallahsga imkon beramiz, hayotga yo`llanma bilan ta`minlaymiz, agar ishonch bilan qadam qo`yayotgan yosh inson hayotda o`z o`rmini topa olsa, o`z-o`zidan ma`lumki, u o`z ishidan, taqdirdan qoniqadi” deya ta`kidlagan fikr va g`oyalarining tub zamirida kasb-hunarga yo`naltirish ishlarining dolzarb ekanligini ko`rishimiz mumkin.

Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida “inson omili”ning roli ortib borishi kuzatilmogda. Dunyo miqyosida hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o`ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, ijodiy fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biroq shuni ham ta`kidlash o`rinliki, talabalardagi tug`ma layoqat va iste`dodni, ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini tizimli o`rganish, kasb-hunarga to`g`ri yo`naltirish va ular tomonidan kasb-hunarni mustaqil tanlay olishni tashkil etish ishlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishda o`z echimini kutayotgan bir qator muammo va vazifalar mavjud. Bular qatoriga oila, mактабгача ta`lim muassasasi, umumta`lim mактаби, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim muassasalari bilan ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, ta`lim tizimini iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o`zgarishlarga tezkor moslashtirishini tashkil etish, eng muhimmi esa o`quvchilarni erta yoshdan boshlab uzlusiz kasb-hunarga yo`naltirish ishlarining mazmunini belgilash, natijani tahlil etish va navbatdagi bosqichda amalga oshirilishi kerak bo`lgan ishni asosli rejalashtirish lozim. Negaki ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to`g`risida o`ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Shunday ekan mактаб jamoasi va ota-onalar o`quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda turli yosh davrlariga oid psixofiziologik bilimlarga ega bo`lishlari uchun mактаб amaliyotchi psixologlari psixologik ma`rifat ishlarini talab darajasida olib borishlari hamda yosh davrlariga xos empirik bilimlarga tayangan holda faoliyatlarini tashkil etishlari kerak. Mazkur vazifani amalga oshirish esa ta`lim soha vakillari hamda ota-onalarni metodik ta`minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Erasmus+ RUECVET (“Piloting ECVET to the national VET system of Russia and Uzbekistan”) loyihasi – bu o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limida (O`MKHT) o`zaro ishonchni mustahkamlash va mobillikni kuchaytirish uchun vositadir .

Loyihaning global maqsadi – O`MKHT tizimidagi malakalarni milliy va xalqaro darajada ham gorizontal (tizim ichida), ham vertikal tarzda o`rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim orasida qiyoslash, mutanosiblik hamda komplementarligini ilgari suruvchi va ta`minlovchi O`MKHT Tuchun Yevropa sinov birliklari tizimini (ECVET) tajriba-sinovdan o`tkazish uchun oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi negizida tayanch platforma yaratish

Loyiha doirasida kasb-hunar kollejlarida kuzatish ishlarini olib borganimizda shuning guvohi bo`ldikki, kollejlar insoning kasb-hunarga bo`lgan chanqoqligini qondiruvchi ziyo chashma. Kollejda o`quvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o`z ishini rejalashtira va nazorat qila bilish, ish o`rnini to`g`ri tashqil qilish, iqtisodiy - tejamkorlik, sabr – toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usuli (etti o`lchab, bir kes) tanlab ola bilish hamda vaqtini tejash va shu kabilardir. Talabalarni kasblar olamiga asta – sekin olib borish, ularni shu olamda mo`ljal olishga o`rgatish zarur.

O`quvchi darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, talaba faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba`zi xususiyatlarini qobiliyat, qiziqish, moyilliklarni payqab oladi, bu xislat va

fazilatlarni shakllantirib boriladi. Xuddi mana shunday kuzatishlar oqibatida ta'lim natijalarini ishlab chiqish mumkin. Bular kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Talabaning kasbiy muhim xislat va fazilatlarini barvaqt aniqlash va esa keyingi o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvoffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natjalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Kollej ta'lim oluvchilarda kasb-hunarga oid ta'limiy natijalarni shakllantirishning asosiy maqsadi yoshlarni o'zining hayot yo'lini to'g'ri belgilashlarida o'zining qobiliyat, qiziqish va moyilligini hamda ijtimoiy ehtiyojni hisobga olgan holda kasb tanlashlarida ko'maklashishdan iboratdir. Bizning jamiyatimiz har bir shaxsning qobiliyatları to'liq namoyon bo'ladigan, yuqori samara bilan ishlay oladigan faoliyat va shart-sharoitlar bilan band bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

O'qituvchining vazifasi: - ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashda va davlat, hokimiyat, mahalla, oila talab – ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarni rivojlantirishda, inson shaxsini har tomonlama uyg'un barkamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga u bilan shunday uyg'unlashishiga ko'niktirish kerakki, mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kasb hunarga yo'naltirish, orqali biror kasb egasi bo'lishida, ta'lim oluvchilar mehnatisiz biror – bir narsaga erisha olmasliklarini tushunib yetsinlar.

Kasbiy ta'lim ta'lim oluvchilarida kasb tanlash va jamiyatda o'z-o'rmini belgilash bilan bog'liq holda o'zida bo'lган qiziqish, qobiliyat va ma'naviy-moddiy qadriyatlarni anglashga zamin yaratishi kerak. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi ta'lim oluvchilar uchun hayotdagi o'z o'rmini aniqlash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi.

Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatları va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin. Ta'lim oluvchilarini kasb tanlashda yo'llash, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ijrochisi mehnat ta'limi o'qituvchisi – uslubchi zimmasisiga tushadi.

Kasbiy ta'limda kasb tanlashga yo'llash va mehnat ta'limidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natjalarga, dars samaradorligini erishishi uchun albatta qo'yidagilarga e'tiborni qaratish kerak.

- zamonaviy ilmiy- texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviyat-moddiy qadriyatlarning mohiyati chuqr tushuna bilish;
- pedagogik texnologiyani va innovatssiya asl mohiyati va uslublarini tushina – qo'llay bilishi;
- ta'lim oluvchilarini mustaqil kasb hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratish;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanan ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi yangi xilma-xil ("Kasbdarsi", "Aqliy hujum", "Zinama-zina") uslublarni o'ylab topishi, amalda qo'llashi;
- an'anaviy darslar orqali o'qituvchilarining yakka tartibda (individual) ishslashga erishish;
- test topshiriqlarni o'quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligining turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha qarashlarni vujudga keltirmoqda. Iqtisodiy ishlab chiqarish sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi jamiyat a'zolarida mehnat bozorida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli bo'la olish, kasbiy faoliyat yo'nalishi sifatida tanlangan mehnat turining sifat va samaradorligini ta'minlash, kasbiy faoliyatni tashkil etish orqali moddiy - ma'naviy manfaatdorlikka erishish yo'lida faollik ko'rsatish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi tushunchaning qaror topishini ta'minladi. Endilikda mehnat bozorida ichki va tashqi omillar ta'sirida mehnat jarayonini tashkil etishdagi tenglik tamoyili barham topib, uning o'rmini ish sifatiga samaradorligiga ko'ra moddiy manfaatdorlik tamoyili egallab bormoqda. Ushbu holat jamiyat a'zolarida mehnat va uning turlari, jismoniy hamda aqliy mehnatni tashkil etish natijasida yuzaga keluvchi moddiy va ma'naviy boyliklarni qadriyat sifatida e'zozlash, inson kuchi bilan bunyod etilgan boylikni asrash, unga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lish tuyg'usining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, mehnat bozorida tobora etakchi o'rin egallab borayotgan ijtimoiy raqobat jamiyat a'zolaridan yanada samarali va sifatli faoliyat tashkil etishni taqozo etmoqda.

Xalqaro miqyosda ishlab chiqarish sohasining jadal rivojlanishi, mahsulotlarga nisbatan talab va taklif o'rtasidagi barqarorlik, yangidan - yangi ishlab chiqarish sohalari, shuningdek, mutaxassisliklarning paydo bo'lishi o'z-o'zidan malakali mutaxassislari va ularning faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj darajasining oshishiga olib kelmoqda. Davrning ushbu talabini to'laqonli ravishda anglagan Respublikamiz hukumati malakali kadrlarni tayyorlash va ularda raqobatga bardoshlilik sifatini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu e'tiborning samarasi sifatida uzlusiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Uzlusiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan eng muhim vazifa – bu umumta'lim fanlari hamda kasbiy bilim asoslarini puxta o'zlashtirgan, mavjud raqobatga bardoshli hamda doimiy ravishda faol ijodiy izlanishda bo'la oluvchi, shuningdek, jahon ta'limi va ishlab chiqarish sohalari standartlariga javob bera oladigan etuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat deb belgilandi.

Kasbiy ta'lim ta'lim oluvchilarini kasb-hunarga oid ta'limiy natijalarni ishlab chiqishdaularning shaxsiy, irodaviy hamda hissiy sifatlarini inobatga olish bilan birga salomatlik darajasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchining salomatligi haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib, uni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha pedagogik faoliyatni tashkil etish ijodiy natijasi ta'minlanmaydigan jarayondir. Shu bois "Kasbiy ta'lim ta'lim oluvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish" monitoringi negizida ularni doimiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda ular o'rtasida kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ma'rifiy ishlarni tashkil etib borishda tibbiy tavsifnomada qayd etilgan ma'lumotlarga asosan ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning tezkor rivoji o'z-o'zidan yangi yo'nalishlardagi kasb va hunarlarning yaratilishiga zamin hozirladi. Bizning nazarimizda, ayni vaqtida yuqorida keltirilgan tasnif tarkibidan soliq, davlat bojxonasi hamda favqulodda holatlarning oldini olish mutaxassisliklarining ham o'rin olishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim oluvchilar (umuman olganda, ixtiyoriy ravishda tanlangan shaxs)ni kasb-hunarga oid ta'limiy natijalarni ishlab chiqishdaunga xos bo'lgan sifatlar xususida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish va pedagogik faoliyatni tashkil etishda ularga tayanib ish ko'rish nafaqat ushbu faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki shaxs kelajak hayotining mo'tadil kechishi uchun moydevor ham yaratadi.

Kuzatish jarayonida o'qituvchi o'quvchining quyidagi shaxsiy fazilatlariga e'tibor berishi kerak: intizomlilik (o'quv, mehnat va texnologik intizom, o'quv va ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish uchun ish vaqtidan oqilona foydalanish); mehnatsevarlik (o'quv va ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga ishtiyоq, puxta o'ylash va topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, fidokorlik, mehnatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish); tejamkorlik (asboblar, mashinalar, mexanizmlarga tartibli, ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish; mablag' va materiallarni tejamkorlik bilan sarflash; moddiy boyliklarni tejab sarflash; moddiy boyliklarni mo'ljallangan joyga sarflash); jamoatchilik (o'rtoqlari bilan kelishib ishlay olish qobiliyati; jamoa mehnatini tashkil etishdan manfaatdorlik va tashabbus ko'rsatish; jamoa manfaatlariga erishish yo'lida o'rtoqlariga yordam berish va talabchanlik ko'rsatish; mehribonlik, xayriyohlik); mehnat natijalariga o'zi baho berish (ob'ektivlik, faxrlanish, nafsoniyat va hokazolar); kasb tanlashga yo'nalganlik, kasb-kori bilimlarini va ko'nikmalarini egallahda faollik; ish sifatini yaxshilash uchun bilimlarni qo'llashga intilish; mehnat unumdorligini oshirish, mehnat ta'limi yo'nalishidan qoniqish, mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash).

Yoshlarni, shu jumladan, Kasbiy ta'lim ta'lim oluvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish muammosining muayyan tomonlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni bayon qilish mumkin:

- ta'lim oluvchilarini kasbga yo'naltirishning mavjud tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb ijtimoiy zaruriyatdir. Mazkur masala ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining muayyan sohalarida kasbiy faoliyatni tashkil etishga yoshlarning moslashishlarida muhim ahamiyat kasb etadi;

- ta'lim oluvchilarini kasbga yo'naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni shunday tashkil etish lozimki, toki ushbu jarayonda ishlab chiqarish ta'limini samarali tashkil etish, yoshlar tomonidan kasbiy faoliyatni yo'nga qo'yish uchun muayyan shart-sharoitlar yaratish, ularning mavjud hayotiy ehtiyojlarini qondirish kabi holatlар qaror toptirilsin;

- shaxs, shu jumladan, ta'lim oluvchilarning kasbga moslashishlarida jamoadagi sog'lom psixologik muhit, jamoa a'zolarining hamjihatliklari, ular tomonidan amal qilinuvchi ma'naviy-axloqiy qoidalar va odatlarning ijobiy mazmunga egaligi kabi ijtimoiy-psixologik omillar ustuvor o'rinn tutadi.

Kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimining ilmiy asoslarini yaratish – ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rinnlarini topa olishini ta'minlashdagi muhim qadamdir.

Mehnat faoliyatini endigina yo'lga qo'yayotgan yoshlarda kasbiy faoliyat va ishlab chiqarishga nisbatan ijobiy munosabat hamda ongli yondashuvni qaror toptirish yo'lida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyatga jamoatchilik e'tiborini tortish hamda oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlikni shakllantirishga erishish ularning har tomonlama barkamol voyaga etishuvlarini ta'minlaydi.

O'qituvchi uslubchilarimiz uchun bugungi kun talabi mana shulardan iborat. Xalqimizda ilmu - hunar ulug'lanib kelgan. Agar inson biron – bir kasbni mukammal egallasa, hunar unga huzur bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengimas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. - 174 b.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000. -30-34-b.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -20-29 b.

РОЛЬ ПОСЛЕВУЗОВСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ВУЗОВ И ПРЕДПРИЯТИЙ

Б. Усмонов

Данная публикация представляет собой краткое изложение проведённого научного исследования по подготовке научных и научно-педагогических кадров в развитых странах мира. Дается обзор публикаций о роли докторантов в создании знаний, его передачи в бизнес и промышленность.

Ключевые слова: инновации, послевузовское образование, докторанттура в развитых странах, наука в вузе и передача знаний.

THE ROLE OF POSTGRADUATE EDUCATION IN COLLABORTION OF SYSTEM "UNIVERSITY-INDUSTRY"

B. Usmonov

The article examines the role of postgraduate students in the creation of knowledge, their transfer to the industry and collaboration of industry and universities.

Keywords: innovations, postgraduate education, PhD programs in developed countries, research in universities, knowledge transfer.

OLIY TALIMDAN KEYINGI TALIMNI O'QUV YURTLARI VA KORXONALAR ORASIDAGI ALOQALARDA TUTGAN O'RNI

B. Usmonov

Ushbu maqola dunyoda rivojlangan mamlakatlarda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning qisqacha mazmuni haqida. Doktorantlarning bilimlarni yaratish, uning biznesga va sanoatga o'tishdagi o'rni haqida maqolada masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalar, aspirantura, doktorantura, oliy bilimlarni uzatish.

Новые формы организации научных исследований и подготовки докторантов стали главной темой в развитых странах. За последние годы в мире опубликованы множества публикаций в области изучения и анализа проблем высшего образования и образовательной политики. Во